



IQTISODIYOTNI RAQAMLASHTIRISH BO‘YICHA DAVLAT SIYOSATI

Usmonov Murodjon Do‘smurot o‘g‘li

*Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, “Raqamli iqtisodiyot” kafedrası
assistenti*

To‘raxonova Mashhura Erkin qizi

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, Iqtisodiyot fakulteti talabasi

E-mail: turaxonovamashxura@gmail.com

Suyunova Sevinchoy Alijonovna

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, Iqtisodiyot fakulteti talabasi

E-mail: suyunovasevinchoy571@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada iqtisodiyotni raqamlashtirish bo‘yicha davlat siyosatining mazmun-mohiyati, milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishida raqamli transformatsiyaning strategik roli, davlat organlarining tartibga solish mexanizmlari hamda raqamli iqtisodiyotni shakllantirishning ustuvor yo‘nalishlari ilmiy tahlil qilinadi. Shuningdek, raqamli boshqaruv tizimlari, elektron hukumat infratuzilmasi, biznes jarayonlarni raqamlashtirish va inson kapitali masalalari davlat siyosatining asosiy komponentlari sifatida yoritiladi.

Kalit so‘zlar: raqamli iqtisodiyot, davlat siyosati, transformatsiya, elektron hukumat, raqamli infratuzilma, innovatsiyalar, boshqaruv tizimlari.

ГОСУДАРСТВЕННАЯ ПОЛИТИКА В ОБЛАСТИ ЦИФРОВИЗАЦИИ ЭКОНОМИКИ

Усманов Муроджон Досмуротович

*Самаркандский институт экономики и сервиса, ассистент кафедры
«Цифровая экономика»*

Турахонова Маишхура Эркин кизи



*Самаркандский институт экономики и сервиса, студентка факультета
экономики E-mail: turaxonovamashxura@gmail.com*

Суюнова Севинчой Алишоновна

*Самаркандский институт экономики и сервиса, студентка факультета
экономики E-mail: suyunovasevinchoy571@gmail.com*

Аннотация. В данной статье проводится научный анализ содержания и сути государственной политики в области цифровизации экономики, стратегической роли цифровой трансформации в устойчивом развитии национальной экономики, механизмов регулирования со стороны государственных органов, а также приоритетных направлений формирования цифровой экономики. Кроме того, рассматриваются цифровые системы управления, инфраструктура электронного правительства, цифровизация бизнес-процессов и вопросы человеческого капитала как ключевые компоненты государственной политики.

Ключевые слова: цифровая экономика, государственная политика, трансформация, электронное правительство, цифровая инфраструктура, инновации, системы управления.

STATE POLICY ON ECONOMIC DIGITALIZATION

Usmonov Murodjon Dosmurotovich

*Samarkand Institute of Economics and Service, Assistant of the “Digital
Economy” Department*

Toraxonova Mashhura Erkin qizi

*Samarkand Institute of Economics and Service, Faculty of Economics Student
E-mail: turaxonovamashxura@gmail.com*

Suyunova Sevinchoy Alijonovna

*Samarkand Institute of Economics and Service, Faculty of Economics Student
E-mail: suyunovasevinchoy571@gmail.com*



Abstract. This article provides a scientific analysis of the content and essence of state policy on economic digitalization, the strategic role of digital transformation in the sustainable development of the national economy, regulatory mechanisms of state authorities, and the priority directions for shaping a digital economy. Furthermore, digital management systems, e-government infrastructure, business process digitalization, and human capital issues are highlighted as key components of state policy.

Keywords: digital economy, state policy, transformation, e-government, digital infrastructure, innovation, management systems.

Kirish. Zamonaviy globallashuv sharoitida raqamli texnologiyalar iqtisodiyotning barcha bo'g'inlarini tubdan o'zgartiruvchi asosiy omillardan biri sifatida maydonga chiqmoqda. Raqamli iqtisodiyot endilikda nafaqat texnologik taraqqiyotning natijasi, balki davlatlarning raqobatbardoshligini belgilovchi strategik resurs sifatida qaralmoqda. Shu sababli ko'plab davlatlar iqtisodiy siyosatning ustuvor yo'nalishi sifatida raqamlashtirish jarayonlarini, elektron boshqaruv tizimlarini, innovatsion texnologiyalarni qo'llashni jadallashtirmoqda.

O'zbekiston ham raqamli transformatsiyani milliy iqtisodiyotning ustuvor strategiyasi darajasiga olib chiqib, "Raqamli O'zbekiston", "Elektron hukumat", "IT Park" kabi davlat dasturlari orqali raqamli rivojlanishni tizimli yo'lga qo'ymoqda. Mazkur siyosatning asosiy maqsadi xalqaro raqobatda ustunlikka erishish, iqtisodiy samaradorlikni oshirish, davlat boshqaruvida ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash hamda raqamli xizmatlar ulushini sezilarli darajada kengaytirishdan iboratdir.

Adabiyotlar sharhi

O'zbekistonning Raqamli Iqtisodiyoti "Raqamli tadbirkorlik va sun'iy intellekt holati"[1] nomli qo'llanmada raqamli iqtisodiyot sharoitida mamlakatning raqamli iqtisodiyoti holati, raqamli tadbirkorlikni tashkil etish, sun'iy intellektning mohiyati, uning iqtisodiyotga ta'siri, hamda global eng yaxshi tajribalar yoritib berilgan.



A.A.Nizametdinov, D.Abdunabiyev Z.Akabayev “Raqamli iqtisodiyotga oid davlat siyosati va tartibga solish dasturlari”[2] nomli tesisida "Raqamli iqtisodiyotga oid davlat siyosati va tartibga solish dasturlari" misolida yozilgan bo‘lib, tezisda Shveytsariyaning raqamli iqtisodiyot sohasidagi davlat siyosati va tartibga solish dasturlari tahlil qilinadi. Shveytsariya, raqamli infratuzilma, kiberxavfsizlik, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish va elektron hukumat tizimlari bo'yicha muvaffaqiyatli tajribaga ega mamlakat sifatida ko'rib chiqiladi. Shuningdek, Shveytsariya dasturlarining O'zbekistonda qanday qo'llanishi mumkinligi keltirildi. Maqolada ayrim Shveytsariya rasmiy saytlaridan foydalanildi va to'liq muallif uzi fikrlar bilan yoritdi.

A.Y.Urinboyev D.R.Yodgorov va Sh.Sh.G'aniyevlarning “O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish tendensiyalari: xalqaro tajribalar va mavjud muammolar”[3] nomli maqolasida raqamli iqtisodiyot hamdaraqamli texnologiyalarning O'zbekiston iqtisodiyoti rivojlanishida tutgan o'рни va mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishning asosiy tendensiyalarini, xalqaro tajribalarning mamlakatimizuchun ahamiyatini hamda mavjud muammolarni tahlil qilishga qaratilgan. Maqolada O'zbekistonningraqamli iqtisodiyotga jadal suratlar bilano'tishjarayonida amalga oshirilgan strategiyalar, raqamli infratuzilma, e-tijorat va kriptovalyutalar sohasidagi yutuqlar, shu bilan birga, davlatningraqamli iqtisodiyotdagi roli haqida ma'lumotlar keltirilgan. Xalqaro tajribalarga, jumladan, Estoniya, SingapurvaJanubiy Koreya tajribalariga tayanib, O'zbekistonningraqamli iqtisodiyotdagi muvaf aqiyatlari vamavjudkamchiliklarini bartaraf etish imkoniyatlari ko'rsatilgan.

Tahlil natijalari

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli O'zbekiston — 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”[4] Farmonida mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotni faol rivojlantirish, barcha tarmoqlar va sohalarda, eng avvalo, davlat boshqaruvi, ta'lim, sog'liqni



saqlash va qishloq xo‘jaligida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar belgilangan.

Xususan, elektron hukumat tizimini takomillashtirish, dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalarining mahalliy bozorini yanada rivojlantirish, respublikaning barcha hududlarida IT-parklarni tashkil etish, shuningdek, sohani malakali kadrlar bilan ta‘minlashni ko‘zda tutuvchi 220 dan ortiq ustuvor loyihalarni amalga oshirish boshlangan.

Bundan tashqari, 40 dan ortiq axborot tizimlari bilan integratsiyalashgan geoportalni ishga tushirish, jamoat transporti va kommunal infratuzilmani boshqarishning axborot tizimini yaratish, ijtimoiy sohani raqamlashtirish va keyinchalik ushbu tajribani boshqa hududlarda joriy qilishni nazarda tutuvchi “Raqamli Toshkent” kompleks dasturi amalga oshirilmoqda.

Respublikada raqamli industriyani jadal rivojlantirish, milliy iqtisodiyot tarmoqlarining raqobatbardoshligini oshirish, shuningdek, 2017 — 2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Ilm, ma‘rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturida belgilangan vazifalar ijrosini ta‘minlash maqsadlari belgilangan.

Iqtisodiyotni raqamlashtirish borasidagi davlat siyosati mamlakatning modernizatsiya jarayonlarini jadallashtirishga, boshqaruv tizimi samaradorligini oshirishga va real sektor raqobatbardoshligini kuchaytirishga qaratilgan kompleks strategiyani ifodalaydi. Mazkur siyosatning mohiyati, avvalo, raqamli infratuzilmani rivojlantirish, davlat xizmatlarini elektron shaklga o‘tkazish, iqtisodiy jarayonlarda texnologiyalardan foydalanishni kengaytirish, inson kapitalini raqamli sharoitga mos ravishda shakllantirish hamda axborot xavfsizligini mustahkamlashga asoslanadi.

Davlat siyosatining birinchi yo‘nalishi — raqamli infratuzilmani rivojlantirishdir. Raqamli iqtisodiyotning to‘laqonli faoliyat yuritishi uchun keng



qamrovli internet tarmoqlari, yuqori sifatli telekommunikatsiya infratuzilmasi, ma'lumotlar uzatish kanallari va zamonaviy data-markazlarning mavjudligi hal qiluvchi ahamiyatga ega. Shu bois davlat tomonidan optik tolali tarmoqlarni kengaytirish, mobil aloqa sifati va qamrovini yaxshilash, infratuzilma loyihalarini qo'llab-quvvatlash strategik ustuvor vazifa sifatida belgilangan.

Ikkinchi yo'nalish — elektron hukumat va raqamli davlat xizmatlarini rivojlantirishdir. Bu tizim davlat xizmatlaridan masofadan turib foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, byurokratik jarayonlarni optimallashtirish, ochiqlik va shaffoflikni ta'minlashga xizmat qiladi. Natijada inson omili qisqaradi, korrupsion xavflar kamayadi hamda xizmat ko'rsatishning umumiy samaradorligi oshadi. Shu maqsadda elektron hujjat aylanishi joriy qilinadi, turli axborot tizimlari o'zaro integratsiya qilinadi.

Uchinchi tarkibiy yo'nalish — biznes jarayonlarni raqamlashtirishni qo'llab-quvvatlashdan iborat. Raqamli texnologiyalarning real sektor faoliyatiga chuqur integratsiyalanishi ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, operatsion xarajatlarni qisqartirish va mahsulot sifatini yaxshilashga imkon beradi. Davlat siyosati elektron tijorat platformalarini rivojlantirish, raqamli to'lov tizimlarini kengaytirish, korporativ axborot tizimlarini joriy etishni rag'batlantirish hamda texnoparklar faoliyatini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan.

To'rtinchi yo'nalish — inson kapitalini rivojlantirish va raqamli kompetensiyalarni kengaytirishdir. Raqamli iqtisodiyotning muvaffaqiyati malakali kadrlar tayyorlash darajasi bilan belgilanadi. Shu sababli IT ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, dasturchilar sonini ko'paytirish, raqamli savodxonlik dasturlarini amalga oshirish, xorijiy mutaxassislar bilan hamkorlikni kuchaytirish davlat siyosatining muhim tarkibiy qismidir.

Beshinchi yo'nalish — axborot xavfsizligini ta'minlashdir. Raqamlashtirish jarayonlari kengaygan sari kiberxavfsizlik talablari ham kuchayadi. Bu borada ma'lumotlarni himoya qilish standartlarini takomillashtirish, barqaror xavfsizlik



protokollarini shakllantirish, kiberhujumlarga qarshi mexanizmlarni yaratish hamda milliy kiberxavfsizlik strategiyasini ishlab chiqish zaruriy vazifa hisoblanadi.

Iqtisodiyotni raqamlashtirish siyosatining ustuvor yo‘nalishlari

Birinchi ustuvorlik — raqamli sanoatni rivojlantirish bo‘lib, bunda avtomatlashtirilgan ishlab chiqarish tizimlari, robototexnika, sun‘iy intellekt va IoT texnologiyalarini joriy etish asosiy ahamiyat kasb etadi. Ushbu jarayon sanoatning samaradorligini oshirish va inson omiliga bog‘liqlikni kamaytirish imkonini beradi.

Ikkinchi ustuvor yo‘nalish — elektron tijorat ulushini oshirishdir. Bu ichki bozorning raqamli muhitga moslashuvi, xalqaro elektron savdo platformalarida milliy mahsulotlarning raqobatbardoshligini kuchaytirish hamda eksport imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi.

Uchinchi yo‘nalish — raqamli to‘lov tizimlarini kengaytirish bo‘lib, bunda naqd pulsiz muomalani rivojlantirish, onlayn banking xizmatlarini modernizatsiya qilish va xavfsiz to‘lov mexanizmlarini takomillashtirish muhim hisoblanadi.

To‘rtinchi ustuvorlik — davlat boshqaruvida raqamli monitoring tizimlarini joriy etishdir. Bunda real vaqt rejimida statistik nazorat, tahlil va prognoz vositalaridan samarali foydalanish boshqaruvdagi tezkorlik va aniqlikni oshiradi.

Beshinchi yo‘nalish — innovatsion ekotizimni shakllantirishga qaratilgan bo‘lib, startaplarni qo‘llab-quvvatlash, venchur moliyalashtirish tizimlarini rivojlantirish va innovatsion tashabbuslarni rag‘batlantirish orqali iqtisodiyotning texnologik yangilanishi ta‘minlanadi.

O‘zbekistonda AKT sohasi so‘nggi yillarda sezilarli o‘zgarishlarni boshdan kechirdi va bugungi kunda u ustuvor soha hisoblanadi. “2023-yilda axborot-kommunikatsiya sohasi milliy iqtisodiyotga 2,1% hissa qo‘shdi. Ushbu sektorda simli va mobil aloqa, internet xizmatlari va tegishli takliflarni o‘z ichiga olgan aloqa xizmatlari qo‘shilgan qiymatning eng katta ulushini tashkil etib, 52,4%ga yetdi. Sohadagi qo‘shilgan qiymatning qolgan 47,6% nashriyot, kompyuter dasturlari, dasturiy ta‘minot ishlab chiqish, televidenie va radioeshittirish kabi faoliyat turlariga



to'g'ri keldi. AKT xizmatlarining milliy iqtisodiyotdagi ulushi 2021 yildagi 1,6% va 2022 yildagi 1,8% dan 2023 yilda 1,9% ga yetdi"[5]. Elektron tijorat sektori YaIM hissasi bo'yicha eng tez o'sishni namoyish qildi, bunda yalpi yillik o'sish sur'ati (CAGR) 2017 yildan 2022 yilgacha 372% ni tashkil etdi. 2022-yilda uning YaIMdagi umumiy hissasi 1,2%ga yetdi.

2024 yil holatiga ko'ra, axborot-kommunikatsiya sohasida faoliyat yurituvchi kompaniyalarning umumiy soni 10 551 tani tashkil etdi[6].

O'zbekistonda Raqamli iqtisodiyot konsepsiyasi ishlab chiqildi. Unga muvofiq "Raqamli iqtisodiyot yalpi ichki mahsulotni kamida 30 foizga o'stirish, korrupsiyani keskin kamaytirish imkonini beradi. Nufuzli xalqaro tashkilotlar o'tkazgan tahlillar ham buni tasdiqlamoqda. Shuning uchun iqtisodiyot sohalarida raqamli transformatsiyani amalga oshirish, milliy axborot texnologiyalarini rivojlantirish va bu yo'nalishda investitsiyalar jalb etish zarur"[7] deb ta'kidlaydi Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev.

Xulosa

Iqtisodiyotni raqamlashtirish bo'yicha davlat siyosati milliy taraqqiyotning strategik omili bo'lib, tizimli yondashuvni talab qiladigan ko'p qirrali jarayondir. Raqamli transformatsiya nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshiradi, balki boshqaruvning shaffofligini kuchaytiradi, ijtimoiy xizmatlarning sifatini yaxshilaydi va yangi iqtisodiy imkoniyatlarni shakllantiradi. Davlat siyosatining mazkur yo'nalishda izchil olib borilishi kelgusida mamlakatning global raqobatbardoshligini sezilarli darajada mustahkamlaydi.

Takliflar:

1. Raqamli infratuzilmani kengaytirish bo'yicha hududlar kesimida maxsus dasturlar ishlab chiqish.
2. Elektron hukumat xizmatlarini to'liq integratsiya qilish va yagona platformaga o'tkazish.



3. Kichik biznesning raqamli texnologiyalarni joriy etishini subsidiya asosida qo‘llab-quvvatlash.
4. IT-sohasining eksport salohiyatini oshiruvchi innovatsion klasterlar tashkil etish.
5. Maktab va oliy ta’lim tizimida raqamli savodxonlikni majburiy kompetensiya sifatida belgilash.
6. Axborot xavfsizligi bo‘yicha xalqaro standartlarni milliy tizimga moslashtirish.
7. Raqamli iqtisodiyotni baholash bo‘yicha yangi indikatorlar tizimini joriy etish.
8. Sun’iy intellektni rivojlantirish uchun milliy ilmiy-tadqiqot laboratoriyalari tashkil etish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

- [1]. BMTTD 2025 https://www.undp.org/sites/g/files/zskgke326/files/2025-05/uz_digital-economy-study_uz.pdf
- [2]. Nizametdinov Ali Akramovich, Abdunabiyev Doston va Akabayev Zohid “Raqamli iqtisodiyotga oid davlat siyosati va tartibga solish dasturlari” Yangi O‘zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining asosiy yo‘nalishlari: muammo va yechimlar 6.12.2024
<file:///C:/Users/User/Downloads/RAQAMLI%20IQTISODIYOTGA%20OID%20DAVLAT%20SIYOSATI%20VA%20TARTIBGA%20SOLISH%20DASTURLARI.pdf>
- [3]. Urinboyev Azizbek Yusuf o‘g‘li Yodgorov Dimirbek Raxmatulla o‘g‘li va G‘aniyev Shaxzod Shuhrat o‘g‘li “O‘zbekistonda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish tendensiyalari: xalqaro tajribalar va mavjud muammolar”
[file:///C:/Users/User/Downloads/YO'ITJ++04,+2-qism+04%20\(3\).pdf](file:///C:/Users/User/Downloads/YO'ITJ++04,+2-qism+04%20(3).pdf)



- [4]. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” Farmoni, 05.10.2020 yildagi PF-6079-son <https://lex.uz/docs/-5030957>
- [5]. Statistika Agentligi (2023): O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli.
- [6]. Statistika Agentligi (2024): Faol tashkilotlar soni “Axborot va kommunikatsiya”
- [7]. <https://kun.uz/89020631#!>